# Manbashunos, muzeyshunos olim Nozim Habibullayev vafot etdi

Habibullayev Nozim Nasibullayevich – manbashunos, muzeyshunos olim, tarix fanlari nomzodi, dotsent.

U 1951-yil 7-iyunda Toshkentda tug’ilgan. 1968-1973-yillarda Toshkent davlat universiteti sharq fakulьtetining arab bo’limida ta’lim oldi. Universitetni tugallagach bir yil davomida O’zbekiston Telegraf Agentligida muxbir bo’lib ishladi. 1974-yilda O’zR FA Tarix institutining qadimgi va o’rta asr tarixi bo’limiga kichik ilmiy xodim bo’lib ishga o’tdi. 1988-yilda Institutning ilmiy kengashida “Бумажное производство в Средней Азии” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1989-yilda Tarix institutining qadimgi va o’rta asr tarixi bo’limiga mudir etib tayinlandi. 1996-2014-yillarda O’zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyi direktori lavozimida 18 yil davomida faoliyat olib bordi. U bevosita muzey tashkil etilishining asoschilaridan biri bo’lib, Muzey fondining boyishida, yangi ko’rgazmalar, ilmiy loyihalar, mahalliy va xalqaro miqiyosda tashkil etilgan konferensiyalarning tashkilotchisi sifatida muhim ishlarni amalga oshirdi. Xususan, uning rahbarligida ilk bora xorijning 13 dan ortiq yirik muzeylari hamda 10 dan ortiq shaxsiy kolleksiyalarida saqlanayotgan Temuriylarga oid ashyolar tadqiq etilib, ular asosida yangi ko’rgazmalar tashkil qilindi va Muzey fondi yangi eksponatlar, fotosuratlar bilan boyidi. Shu bilan birga N.N.Habibullayev Temuriylar davri san’ati va madaniyatini targ’ib etishga doir xalqaro anjumanlarning Muzeyda ilk bor tashkil etilishida ilmiy koordinator sifatida ham faoliyat olib bordi.

Olim o’z faoliyatida qator xorijiy davlatlarda ilmiy safarlarda bo’lib, xalqaro konferensiyalar va simpoziumlarda o’z ma’ruzalari bilan ishtirok etdi. Shu bilan birga olim Koreya, Yaponiya, Xitoy olimlari bilan hamkorlikda ishlanayotgan, Samarqand qog’ozini yaratish va uni targ’ib etishga bag’ishlangan xalqaro loyihada ham ishtirok etdi.

2019-yilda N.Habibullayev mas’ulligida “O’zbekiston tarixi xrestomatiyasi”ning IV jildi qayta nashrga tayyorlandi.

O’zbekiston madaniyati tarixini asrash, tadqiq va targ’ib etish bilan bog’liq masalalar bevosita uning rahbarligida olib borilgan qator fundamental loyihalarda, ko’rgazmalarda va 100 dan ortiq ilmiy nashrlarda o’z ifodasini topdi. U 100 ga yaqin ilmiy va 100 dan ziyod ilmiy-ommabop maqolalar, 3 ta monografiya muallifidir. Uning rahbarligida 1 ta fan doktori va 3 fan nomzodi tayyorlangan.

Iste’dodli olim, ilg’or tashkilotchilik va yuksak insoniy fazilatlari bilan respublika hamda xorijiy olimlar

hurmatini qozondi.

Uning xizmatlari davlatimiz tomnidan ham yuksak baholanib, “Shuhrat” medali (1996-y.), “Mehnat shuhrati” ordeni (2001-y.), “O’zbekiston Respublikasi Mustaqilligiga 25 yil” esdalik ko’krak nishoni (2016-y.) bilan taqdirlangan.

O’zR Fanlar akademiyasi jamoasi Temuriylar tarixi davlat muzeyi katta ilmiy xodimi, tarix fanlari nomzodi, dotsent Habibullayev Nozim Nasibullayevichning bevaqt vafoti munosabati bilan uning oila a’zolariga chuqur ta’ziyasini izhor etadi.